

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ТАБИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТИ

**“БИОЛОГИЯ ВА ҚИШЛОҚ
ХЎЖАЛИГИНИНГ ЮТУҚЛАРИ,
МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ”**

мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАРИ

(Урганч, 2018 йил 26 ноябрь)

3-жилд

*Ушбу тўплам Урганч Давлат университети кенгашининг 2018 йил
21 ноябрдаги 4-сонли йиғилиши қарори асосида нашрга тавсия этилган.*

Урганч – 2018

Б 70

“Биология ва кишлок хўжалигининг ютуқлари, муаммолари ва истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 3-жилд. Масъул муҳаррир **Г.М.Сатинов**. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Урганч Давлат университети. Урганч, УрДУ ноширлик бўлими, 2018 йил. 144 бет.

КБК 40.0

УЎК 630

Тўпламда сўнги йилларда минтақада биология ва кишлок хўжалигининг ютуқлари, истиқболлари ва ечимини қутаётган долзарб муаммолар таҳлил этилади. Жумладан, биохилма-хилликни сақлаш ва ривожлантириш, кишлок хўжалик экинлари агробиологияси, полизчилик ва унинг ривожлантириш истиқболлари, махсулотларни реализация қилишда инновацион ёндашув, суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш йўналишлари, кишлок хўжалигида янги ва истиқболли ўсимлик навларининг етиштириш технологиясига оид материаллар киритилган.

Тўплам биология ва кишлок хўжалиги соҳасида фаолият кўрсатаётган, илмий тадқиқотлар олиб бораётган ёш олимлар, таянч докторантлар, мутахассислар, мустақил изланувчи ва магистрлар учун мўлжалланган.

Масъул муҳаррир

проф. Г.М.Сатинов

Таҳрир хайъати:

доц. Ж.Ш.Рузимов,
доц. С.Х.Бабаджанова,
доц. П.Камолов,
доц. З.Р.Тажиев,
доц. Ю.Джуманиязова,
доц. Ю.А.Матяқубова,
доц. З.Б.Аллаберганова,
доц. Ғ.Қ.Якубов,
доц. Э.И.Самандаров,
доц. О.Ж.Эгамбердиев,
доц. И.Исмойилова,
к.ўқ. М.М.Қурбонов,
к.ўқ. С.Ю.Бабажанова,
к.ўқ. К.Р.Йўлдашев,
ўқ. У.Қ.Абдурахимов

Такризчилар:

**проф. Р.Эгамбердиев,
доц. Б.Ф.Файзуллаев**

ISBN: 978-9943-5180-5-6

© УрДУ ноширлик бўлими. 2018

© Биология ва кишлок хўжалигининг ютуқлари, муаммолари ва истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 3-жилд.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. R.Mavlyanova, A.Rustamov, R.Khakimov, A.Khakimov, M.Turdieva and S.Padulosi. O'zbekiston qovunlari. T., 2005.
2. Остонакулов Т.Э., Жаборов Ш. Самарканд ковунчилиги. Самарканд, 2010, 14-бет.
3. Остонакулов Т.Э., Зуев В.И., Қодирхўжаев О. Мева-сабзавотчилик. Т., "Наврўз", 2018, 552-бет.
4. Веб сайтлар: www.agro.uz, www.ziyounet.uz

J.X.Berdiyev, Z.B.Norqobilova (Qarshi davlat universiteti)

QARSHI VOHASI SHAROITIDA INTENSIV BOG'LARNI BARPO ETISH

Ma'lumotlarga qaraganda, bog'dorchilikdan olinadigan yalpi hosil 2000-yildan boshlab sezilarli darajada ko'paygan. Ilgari mevachilik va bog'dorchilikning asosiy qismi qishloq xo'jalik korxonalarida mujassamlashgan bo'lib, ular jami mahsulotning o'rtacha 60% dan ortig'ini yetishtirgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalaning eng muhim jihati shundan iboratki, oxirgi yillarda ilm-fanning rivojlanishi, xususan, bog'dorchilik, qishloq xo'jaligining jadal rivojlantirilishi yangi tipdagi bog'larning, fanning oxirgi yutuqlariga asoslangan daraxt va ko'chatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Bu esa bog'dorchilikka yangicha yondashish, bog'dorchilikdan yangicha ko'lamda hosil olish masalasini ko'ndalang qo'yimoqda. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, o'ziga xos tarmoqlardan biri bo'lgan mevachilikda mahsulotni yetishtirish uchun sarflanadigan ishlab chiqarish xarajatlari darhol qoplanmaydi, chunki meva daraxtlarining hosilga kirishi uchun ancha uzoq vaqt talab etiladi. Aytib o'tilgan yangicha texnologik jarayonlar, jumladan, mevali ekinlarni kuchsiz o'suvchi payvandtaglarda o'stirish mazkur sohani jadallashtirishning muhim yo'llaridan biri hisoblanadi (Aripov A., Aripov A. 2013).

Keyingi yillarda Respublikamizda bog'dorchilikka jiddiy e'tibor qaratilgani tufayli bog'larning umumiy maydoni 200 ming gektardan oshgan. Biroq mevali ekinlarning hosildorligi uncha yuqori bo'lmasdan, gektariga o'rtacha 5,5 – 6 tonnani tashkil yetadi, bu esa o'simliklarning potensial imkoniyatlardan 2 – 3 barobar kamroqdir. Ma'lumotlarga ko'ra, Respublikada yalpi meva ishlab chiqarish hajmi 540 ming tonna atrofida bo'lib, shundan o'rtacha 130 ming tonnasi xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi. Ishlab chiqarishning ushbu ko'rsatkichiga binoan, Respublikamizda aholi jon boshiga bir yilda 52 kg.gacha meva to'g'ri keladi, bu esa belgilangan me'yor ko'rsatkichidan 27% ga kamdir. Keng ko'lamda harakat qilinishiga qaramasdan, hali bu borada imkoniyatlar to'liq ishga solinmagan, kerakli natijalarga erishilmagan (Bo'riyev X.Ch. va b. 2013).

Mevali daraxtlar mahsuldorligining past bo'lishiga quyidagi omillarni asosiy sabab sifatida ko'rsatish mumkin:

- ◆ mevali ekinlarni yetishtirishda texnologik jarayonlarning buzilishi;
- ◆ respublikamizga introduksiya qilingan nav va payvandtaglarni rivojlantirishning biologik nuqtayi nazardan yetarlicha o'rganilmaganligi;
- ◆ meva ekinlarni, xususan, ko'chat yetishtirish bo'yicha tavsiyalar va texnologiyalarning takomillashtirilmaganligi;
- ◆ mevachilik va bog'dorchilikka yangi zamonaviy texnologiyalar to'liq jalb etilmaganligi, bu boradagi ishlar barqaror rivojlanish sur'atlaridan orqada qolayotganligi.

Yuqoridagilarga bog'liq holda mevachilik va bog'dorchilik tarmog'i barqaror va jadal rivojlanish darajasidan orqada qolayotgani, aholining meva va sabzavotlarga bo'lgan yildan yilga o'sib borayotgan talabi yetarlicha qondirilmasdan qolayotgani, qayta ishlash sanoatining esa xomashyoga bo'lgan talabini to'liq ta'minlash imkoniyati amalga oshmayotganligini ko'rsatib o'tish mumkin. Aytib o'tilgan fikrlar bog'dorchilikni, meva va sabzavotchilikni, ayniqsa, bu bo-

rada keyingi yillarda keng qo'llanilayotgan biotexnologik usullardan oqilona va samarali foydalanish zaruratini paydo qiladi.

Olma ekini ko'chatlarini yetishtirish bo'yicha respublikamizdagi texnologiyalar gektaridan 30 ming donagacha standart ko'chat olish imkonini beradi, bu esa jami kurtak payvand qilingan o'simliklarning o'rtacha 40–45% tashkil etadi. Demak, ko'chat ishlab chiqarish tizimi ko'chatzorning maydon birligidan standart ko'chatlarning kam chiqish sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish bo'yicha qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Respublikamizdagi hamda xorijdan keltirilayotgan har xil vegetativ ko'paytiriladigan payvandtaglar bir-biridan qator morfologik, biologik va ekologik ko'rsatkichlari bilan farqlanadi. Ularni muayyan tuproq hamda iqlim sharoitida va shu joy uchun xos bo'lgan nav assortimentida qo'llash masalani ilmiy jihatdan batafsil o'rganilib bo'lgachgina maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib O'zbekistonda barcha bog'dorchilikka ixtisoslashgan jamoa xo'jaliklarida ishlab chiqarishni yangi intensiv rivojlantirishga o'tkazish to'la maqsadga muvofiqdir, deyish mumkin. Bu esa sog'lomlashtirilgan klonli payvandtag bog'lar barpo etishni talab qiladi. Buning uchun esa, avvalo, payvandtaglardan sog'lomlashtirilgan ekish materiallarini olish va ko'paytirish usullarini ishlab chiqish lozim (Berdiyev J.X., Shukurova M.B. 2016).

Intensiv bog'lar keyingi yillarda butun dunyoda keng tarqalib, rivojlanmoqda. Respublikamizda yuqori hosil beruvchi pakana va yarim pakana mevali (intensiv) bog'larni barpo etishdan maqsad, respublika aholisini mevalarga bo'lgan talabini to'liq qondirish, bozorlarimiz to'kin-sochinligini ta'minlash va eksport salohiyatini yildan yilga oshirib borishdan iborat.

2010-yili Respublika rahbariyatining tashabbusi bilan intensiv texnologiyalar asosida parvarishlanadigan pakana va yarim pakana olma, nok, olxo'ri, gilos va shaftoli ko'chatlari ilk bor Ukraina va Polsha davlatlaridan olib kelinib, asosan, Toshkent hamda Samarqand viloyatlarining fermer xo'jaliklari yer maydonlariga ekildi. Ushbu bog'lar mamlakatimizning tuproq va iqlim sharoitiga tez moslashib, qisqa muddat ichida (oradan bir yil o'tib, ya'ni 2011-yildan boshlab) mevali bog'larning har bir gektaridan 50–70 sentnergacha hosil olishga erishildi. Natijada bunday bog'larni yildan yilga kengaytirish, ularni dehqon va fermer xo'jaliklarida barpo etish maqsadida hukumatimiz tomonidan aniq manzilli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Hozirgacha respublikaning barcha hududlarida jami 5,3 ming gektar, jumladan, Samarqand viloyatida 1300 gektar, Toshkent viloyatida 1000 gektar, Navoiyda 750 gektar, Qashqadaryoda 600 gektar, Surxondaryo, Namangan va Andijon viloyatlarida 400 gektardan pakana va yarim pakana mevali bog'lar barpo etildi. Intensiv bog'larda asosan olma ko'chatlarini ekish keng yo'lga qo'yilgan. Buning boisi olma daraxtining ko'chatlari tez hosilga kiradi, gektariga ko'chat soni qalin ekilishi (2000–2500 dona) sababli hosildorlik yuqori bo'ladi. Bunda ekilayotgan olma navlari payvandtagga payvand qilinib, ko'chatzorlarda ko'paytirilib, ekiladi. Intensiv mevali bog'larda ekilayotgan olma ko'chatlarining asosiy navlari Golden Delishes, Star Krimson, Renet Simirenko va boshqalardir.

Qashqadaryo viloyati sharoitida ekiladigan pakana va yarim pakana mevali daraxtlarning hosildorligini o'rganish maqsadida 2016–2018-yillari Qarshi vohasi atrofida joylashgan Bog'obod massivida barpo etilgan intensiv bog'larni o'rganish maqsadida bir qator kuzatuv tajribalari olib borildi. Olib borilgan kuzatuv natijalarimizga ko'ra, barpo etilgan intensiv bog'lar, asosan, olma navlaridan iborat bo'lib, bular bir qator zararkunandalar bilan zararlanishi ma'lum bo'ldi. Kuzatuvlarimizni davom ettirgan holda, zararkunandalardan olma shirasi, do'lana girdak kuyasi va olma mevaxo'ri zarar keltirishi aniqlandi. Kuzatuv olib borgan maydonlarimizda olma mevaxo'ri 4 marta avlod berib, jiddiy zarar keltirishi aniqlandi. Natijada bu zararkunandalarga qarshi agrotexnik, kimyoviy va biologik kurash choralarining samarali usullari yaratilib, qarshi qo'llanish natijasida yuqori hosildorlikka erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov A., Aripov A. Urug'li intensiv meva bog'lari. Toshkent, "Sharq", 2013.

MUNDARIJA

4-ШУЎБА. МАҲСУЛОТЛАРНИ РЕАЛИЗАЦИЯ ҚИЛИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ	
Х.Амиров, Т.Остонакулов. Қовун ёзги навларининг экиш муддатларини белгилашда инновацион ёндашув	3
J.X.Berdiyev, Z.B.Norqobilova. Qarshi vohasi sharoitida intensiv bog'larni barpo etish	5
J.X.Berdiyev, M.N.Ruziboyeva, M.T.Saidova. Urug' mevali bog' zararkunandalarni hisobga olish va rivojlanishini oldindan aytish usullari	7
Z.N.Madrahimova, K.K.Ishonqulova, J.X.Eshmurodov. Mirzacho'ning adir mintaqasida pista yetishtirishni tashkil etish muammolari	8
Х.Норбеков, Т.Остонакулов, Б.Холмирзаев. Урожайность перспективных кишмишных сортов винограда в условиях Зарафшанской долины	10
Т.Остонакулов, Х.Хонкулов, А.Исмойлов. Картошка генофондини икки хосилли экин сифатида баҳолаш ва мосланувчанлик имкониятлари	12
С.Сатторов. Кулупнайдан уй шароитида тайёрланадиган консервалар	13
Ф.Ҳайитов. Қашкадарё вилоятининг тоғ ва тоғ олди ҳудудлари учун ёнғокнинг (juglans) нав намуналарини танлаш ҳамда кўчатларини етиштириш технологиясини такомиллаштириш	16
Р.Рўзметов, Б.Худайназаров. Зараркунанда ва касалликларга қарши курашда атроф-муҳитни мониторинг қилишнинг аҳамияти	17
Ғ.Раҳматов. Қишлоқ хўжалик соҳасига инновацион ёндашув	19
Z.Mingisheva, M.Bo'ranova. Kovul – asal beruvchi o'simlik	21
А.Матчанова, С.Бектурдиева, М.Кенжаева. Туризмнинг ривожланишида агротуризмни роли	23
З.Г.Юнусова, Ф.Х.Рахимов, К.О.Додаев. Вязаные текстильные фильтры из наполненного трикотажа и их применение в пищевой промышленности	25
М.Х.Арамов, Ж.Н.Наджиёв, Ф.А.Нурмаматов. Бўртма нематодасига чидамли, транспортбоп помидор ва баклажон нав ва дурагайлари селекцияси	28
А.К.Аманов, Р.Р.Отажонов, Д.К.Каримов. "Buxoro Agro" erkin iqtisodiy zonasi O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojidadagi yangi bosqich debochasi	29
Н.Эшонкулов, З.Асқарова, М.Очилов. Ўрикни уй шароитида қуритиш ва сақлаш технологияси	32
Н.Эшонкулов, Л.Эшонкулова, З.Асқарова, М.Очилова. Дала шароитида қовундан қора қанд тайёрлаш технологияси	34

